

O'RTA UMUMIY TA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARINI MA'NAVIY VA KASBIY
YETUK TARBIYALASH – MUSTAQILLIK TAQOZOSI

Zaripova Gulbahor Komilovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak mutaxassislar bo'lmish, o'rta umumiy ta'lim maktabi o'quvchilarini ma'naviy va kasbiy yetuk tarbiyalash haqida xalqimiz buyuk olimu-davlat arboblarning ilmiy, amaliy hamda hayotiy tajribalardan foydalanilgan holda muallif tomonidan batafsil yoritilgan bo'lib, bunda jamiyatimiz quruvchilari bo'lmish o'quvchi yoshlarimizni maktab davridan boshlab ma'naviy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda kasbiy tarbiyalash natijasida mustaqil yurtimizning yetuk malakali kadri bo'lib shakllanishida muhim omil bo'lishi haqidadir.

Kalit so'zlar: «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», rivojlangan demokratik davlatlar, o'quv yurtlari, yuqori malakali mutaxassislar, taraqqiyot, yangi tarixiy, sharoit, iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, inson ongi, aql-zakovati, ijtimoiy faolligi, tafakkuri, g'oya, qaror, qonunlar, raqamlashgan axborotlashgan jamiyat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohoti «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'zining ilmiy-nazariy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-yuridik ifodasini topdi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir» [2].

Bu vazifani bajarish ta'lim-tarbiya jarayoniga, uning mazmun, shakl va metodlarini, o'quv yurtlarida tarbiyaviy jarayonni tubdan o'zgartirishni talab qiladi. O'quv yurtlaridagi ta'lim jarayonini tashkil etishda tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor berib, ularda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda o'z kasbini mukammal o'rganishi bilan birga yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan shaxs sifatida ularni shakllantirish nihoyatda muhimdir. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar xalqaro miqyosda e'tirof etilib, o'zining dastlabki samalarini bera boshladi. Buning oqibatida Respublikamizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi ancha tezlashdi.

Ammo, uni kelgusi taraqqiyotining omillarini inobatga olib mutaxassislar tayyorlashni jahon andozalariga moslashtirish, ularni o'z mutaxassisliklari va ijtimoiy-siyosiy bilimlarini ularning shaxsiy e'tiqodiga aylantirishni taqozo etadi. Yangi tarixiy sharoitda insonni o'zini takomillashtirmasdan turib, jamiyat oldida turgan murakkab iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolarni hal etish mumkin emas. Chunki ularni echishda inson ongi, aql-zakovati, ijtimoiy faolligi xalq, millat oldidagi mas'uliyatini his qilishi muhimdir. Inson va uning ongini tafakkurini o'zgartirish bilan mustaqil davlatni qurish bir-biriga dialektik bog'liq jarayondir.

Insonlarning fan, ta'lim va g'oyalarni egallab olish jarayonlarini tahlil qilar ekanmiz, haqiqatdan ham har qanday g'oya, qaror, qonun insonlar ongi, harakati, xulq atvoriga singishi, bilimi-ma'naviy dunyosi orqali uning amaliy faoliyatga tatbiq qilinishining guvohi bo'lamiz. G'oya, qaror, qonunlarni o'zlashtirib olib, shaxs ularni o'z ma'naviy mulkiga aylantirgach, hozirgi raqamlashgan axborotlashgan jamiyatni takomillashtirib, kishilarni o'zgartirish imkoni tug'iladi. Shuning uchun, mustaqil davlatimiz oldida yangi, erkin, ozod, mustaqil fikrlovchi insonni tarbiyalash hayot-mamot masalasi sifatida

ko'ndalang bo'lib qoldi. Bu ijtimoiy zaruriyat butun ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini yangi, g'oyaviy asosda isloh qilishni talab qiladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishib, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishning o'ziga xos, ya'ni I.Karimov ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslagan «o'zbek modeli» asosida rivojlanmoqda. Aytish mumkinki, bu model ma'lum ma'noda hayotda o'zini oqlab, yashash uchun o'z huquqini qo'lga kiritdi. Buning hayotdagi isboti mamlakatimiz ijtimoiy hayotining hamma sohalarini evolyusion taraqqiy qilishidir.

Mustaqil rivojlanish yillari tajribasi shuni ko'rsatadiki, silkinish, larzalarsiz amalga oshdi, chunki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bosh omili inson, uning ongi, aql-zakovati tafakkuridir. Respublikamiz Prezidenti islohotlarni amalga oshirishda ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarga kuchli e'tibor berib, ularning mohiyatini aholiga tushuntirish hamda mamlakat milliy xususiyatlariga mos keluvchi siyosiy tizimni to'g'ri tanlagani ham rivojlanishning muhim omilidir. Ko'rinib turibdiki, jamiyatimizning mustaqillik sharoitida rivojlanishida ta'lim-tarbiyani yangi metodologik asosda qurish tarixiy zaruratga aylandi. Bu muammoni birinchi prezidentimiz I.Karimov o'zining «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin», «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li», «Milliy istiqbol, mafkura, iqtisod, siyosat», «Bizdan obod va ozod Vatan qolsin», «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir», «Bunyodkorlik yo'lidan», «Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «Xalqimiz jipsligi-tinchlik va taraqqiyot garovi», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» kabi qator asarlarida hamda hozirgi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining «Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga kuramiz», «Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz», «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi», «Erkin va farovon davlat barpo etamiz», «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash», «Tanqidiy tahlil», «Harakatlarstrategiyasi», «Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz», «Tanqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bolishi kerak», «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi», «O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy majlisga murojatnomasi. 2020 yil 24 yanvar» nutq va maqolalarida ilmiy jihatdan hal qilib, ta'lim-tarbiyaning etakchi rolini ochib berdi. Mazkur asarlarda mamlakat madaniy-ma'rifiy va ta'lim-tarbiya tizimining nazariy asosi hamda uning rivojlanishi murakkab iqtisodiy-siyosiy, mafkuraviy masalalari, bozor munosabatlari sharoitida o'ziga xos xususiyatlari o'z ilmiy talqinini topdi. Chunki bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy taraqqiyot, yuqori kasbiy tayyorgarlik bilan birga kadrlardan tashabbuskorlik va tadbirkorlik, so'z va amaliy ish birligi, mustaqil fikrlash, istiqbolli maqsadga intilish, Vatan, xalq, millat ravnaqi yo'lida fidoyi bo'lishni ham talab qiladi. Bo'lajak mutaxassislarda bu sifatlarni shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimining ishtirokisiz amalga oshmaydi. Bu, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya tizimini ma'naviy etuk, kasbini chuqur biluvchi kishilarni tayyorlashga xizmat qilishini taqozo qiladi. Jahonning ko'p rivojlangan mamlakatlari tajribasi davlatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy rivojlanishi ta'lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash tizimi bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Chunki ta'lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash tizimining asosiy ob'ekti inson shaxsi, uning ma'naviy va axloqiy qiyofasi bilimi va kasbiy kamolotidir. Shuning uchun, mamlakatda biron-bir masalani inson ishtirokisiz, kadrlar saviyasi, malakasisiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Mustaqillik sharoitida ta'lim-tarbiya, eng avvalo, mustaqil fikrlovchi, adolat va axloq-odob bilan yondashuvchi insonni tarbiyalashga xizmat qilishi ijtimoiy jihatdan muhim bo'lib qoldi. Shu bilan birga, uning markazida faqat davlat manfaati emas, eng avvalo, shaxs ehtiyojiga xizmat qilish ustuvor yo'nalish sifatida qo'yildi. Yangi tarixiy sharoitda mamlakat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi ta'lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash ekanligi har tomonlama asoslanadi. «... Tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammo», – ekanligi aniq bo'lib qoldi [3]. «Lo'nda qilib aytganda, – deb ta'kidlaydi I. Karimov, – bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri – bularning barchasi, avvalam bor, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab etmoqdamiz» [4].

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga kuramiz" nomli asarining 21 betida: "Biz hayotda to'la oqlagan "Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun" dagan tamoyildan kelib chiqqan holda, ijtimoiy sohadagi islohotlarni, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirish yo'lini davom ettiramiz: ya'ni taraqqiyotning "o'zbek modeli" tarkibidagi mashhur besh tamoyildan biri bo'lgan kuchli ijtimoiy siyosat yuritish prinsipiga qat'iy amal qilamiz" – deb bejiz aytmagan [1, 21].

Shunga ko'ra taraqqiyotning "o'zbek modeli"ni hayotga tatbiq etish davomida ko'ryapmizki, inson tarbiyasi, uning tarbiyalanganlik darajasi faqat jamiyat taraqqiyotining hozirgi kuni uchun emas, balki kelajagi uchun ham muhim ekanligini axborotlashgan jamiyatimizning surunkali rivojlanishda bo'lgan ijodiy muhiti "o'zbek modeli"ni tatbiq etishni taqozo etayapti. Shunday qilib, milliy mustaqillik sharoitida bo'lajak mutaxassislarda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish o'quv-tarbiya jarayonining muhim ajralmas vazifasiga aylandi. Chunki ma'muriy-buyruqbozlik sharoitida shaxsga, asosan, tashqi ma'muriy ta'sir orqali munosabatda bo'lish, uni o'z xohishi, istagi va mustaqil qaror qabul qilishdan mahrum qilib, ma'muriy tazyiq quliga aylantirib, avtomatik ravishda ko'rsatma va buyruqlarni bajaruvchi robotga aylantirgan edi. Bozor munosabatlari sharoitida mutaxassis ma'muriy tazyiqdan xoli bo'lib, ijodiy, mustaqil fikrlashi, uning yuksak kasbiy tayyorgarlik bilan birga umumiy ma'naviyati, pok axloqi, ijtimoiy faolligi hayot talabi bo'lib qoldi. Shaxsning ishlab chiqarish jarayonida vaziyatdan kelib chiqib to'g'ri qaror qabul qilishi uning shaxsiy sifatleri insoniy va kasbiy madaniyatining ajralmas xususiyatiga bog'likligi ayon bo'ldi.

Aynan shunday sifatlar mutaxassisni yaratuvchilikka undab, o'z navbatida kasbi orqali – jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'sha olishiga olib keladi. Bu sifatlar mutaxassislarni ongli rivojlanishi va o'zligini anglashi orqali o'zini xalq, Vatan, manfaatlariga shaxs va kasb sohibi sifatida hissa qo'shishiga tayyorlashni taqozo qiladi. Bu zaruriyat bo'lajak mutaxassisning o'z faoliyatini xolisona baholash va nazorat qilish, o'zining insoniy sha'ni va shaxsiy g'ururi asosida tartibga solish mexanizmlarini o'zida shakllantirishida umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni asosiy rol o'ynashi lozim. Mutaxassis shakllanishiga bunday yondashishning boisi shuki, insonning ichki ma'naviy dunyosi xulq-atvor normalarini ichki motivga aylantirib, motiv esa yo'naltiruvchilik rolini bajaradi. Bunda talabaning ta'lim jarayonidagi faolligi oshib, o'zini shaxs sifatida shakllanishini, kasbini chuqur egallashi bilan yaxlitlikda, ichki anglangan motiv ta'siri ostida amalga oshiradi. Shundan kelib chiqib, hozirgi sharoitda umumiy o'rta ta'lim maktablarda mutaxassislar tayyorlashda faqat kasb sohibini emas, balki uning shaxsiy sifatlerini o'zaro mutanosiblikda

shakllantirish ham muhim o‘rin egallamoqda. «Taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma’naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Oliy zakovat va ruhiy-ma’naviy salohiyat-ma’rifatli insonning ikki qanotidir», – deb ta’kidlaydi I.Karimov [5, 13]. I.Karimovning fikridan ma’lum bo‘lyaptiki, milliy istiqloq sharoitida mutaxassis kadrlar tayyorlashga munosabat ham mohiyat e’tibor bilan ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojidan kelib chiqib o‘zgargan. Mustaqillik sharoitida biz o‘z tariximiz, madaniyatimiz, urf-odat, an’analarimizga qaytishimiz, mutaxassislar tayyorlashda ham asosiy mezon bo‘lishi lozim. Chunki milliy merosimizda avval bolaga bilim berishdan oldin uning axloqini tarbiyalashga alohida e’tibor berilgan. Ma’lum bir ekindan mo‘l hosil olish uchun avvalo ekiladigan erga oldin ishlov berib, uni tayyorlaganlaridan so‘ng unga urug‘ tashlaganlar. Xuddi shunday shaxsga ham bilim berishdan oldin uni axloqiy qiyofasini, tartib-intizomini tarbiyalash muhimdir. Shuning uchun, hozirgi paytda oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlashda kasbiy tayyorgarlik bilan birga uning yuksak insoniy xislatlarini, ma’naviyatini tarbiyalash belgilovchi omil bo‘lmoqda. Ta’lim bilan tarbiya yaxlitlikda olib borilishi lozim. Zotan tarbiya insonning o‘z mohiyatini tushunishga, kasbiy faoliyatini ezgulik, kishilarga yaxshilik qilishga yo‘naltirishi bilan muhimdir. Shuning uchun, I.Karimov «Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e’tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz. Ma’naviy va axloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakkam insoniy fazilatlar o‘z-o‘zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi», – deb ta’kidlashi bejiz emas [3, 53].

Respublikamiz mustaqillikka erishib, u bu yo‘lda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishining o‘ziga xos, ya’ni I.Karimov hamda Sh.Mirziyoyev ilmiy va amaliy asoslagan “o‘zbek modeli”da dadil odimlashi muhimdir. I.Karimov o‘z asarlarida buni metodologik jihatdan asoslab shunday deb yozadi: «Men Abdullo Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir», – degan fikrini ko‘p mushohada qilaman. Buyuk ma’rifatparvarning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalar, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarbdir» [3, 39]. Istiqloq sharoitida yangi, erkin, ozod, mustaqil fikrlovchi kishini tarbiyalash mustaqil davlatimiz oldida dolzarb masala sifatida ko‘ndalang bo‘lib qoldi. «Shuning uchun, ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq – deb, ta’kidlaydi I.Karimov, – butun mamlakat miqyosida ta’lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o‘rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zaruriyat sezila boshlandi. Busiz jamiyatimizning biror bir sohasini o‘zgartirishga kirishib bo‘lmas edi» [3, 41]. Islohotlarning taqdiri va samarasi birinchi navbatda kadrlar saviyasiga, ularning zamon va taraqqiyot talablariga nechog‘lik javob berishga bog‘liq. Yurtimizning ertangi hayoti va taqdiri avvalambor, shu muammolarni uzil-kesil echish bilan chambarchas bog‘liqligini, har qaysi fikrlovchi odam tarbiyasi, uning tarbiyalanganlik darajasi jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi muhim omil hisoblanishini yurtimiz alohida ta’kidlaydi. Yangi mustaqil jamiyat sharoitida endilikda shaxsga, uning talim-tarbiyasiga yangi metodologik asosda yondashish tarixiy zaruriyat bo‘lib qoldi. Bu muammoni I.Karimov o‘zining «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» va boshqa bir qancha asarlarida ilmiy jihatdan hal qilib berdi. Mamlakatimiz rivojining hozirgi bosqichida tarbiyaning muhim vazifasi yoshlarda milliy g‘oya va shu asosda milliy mafkurani shakllantirishdir. Chunki «...Milliy g‘oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor bo‘lishi zarur» [3, 41].

Har qanday yangilik kabi mustaqillik g'oyasi ham juda murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, ma'naviy kurash sharoitida o'ziga yo'l ochmoqda. Bunda nafaqat yangi iqtisodiy asosda bozor munosabatlarini qaror toptirish, balki yangi insonning ongi, mafkurasini shakllantirish uchun kurash ham o'ziga xos shakl va usullarda davom etmoqda. Bu, eng avvalo uzoq vaqt kishilar ongi, fikri-zikridan mustahkam o'rin olgan kommunistik mafkuraning to'la bartaraf qilinmaganligi, jamiyatimizning rivojlanishiga ancha xalaqit bergani sir emas. Milliy qadriyatlarni tiklash borasida juda katta nazariy va amaliy ishlarning olib borilishi hamda milliy qadriyatning muhim shakli bo'lgan dinga munosabatning keskin o'zgarishi istiqloq yo'lidagi taraqqiyotda o'z ifodasini topmoqda. Bular hozirgi kunda jamiyatimizda nafaqat eskilik bilan yangilikning kurashi tarzida namoyon bo'lmoqda, balki inson hissiyoti, fikri-zikri, e'tiqodining ta'sirchan shakli bo'lgan din orqali mustaqilligimiz g'animlari milliy istiqloq g'oyasiga qarshi kurashga intilmoqdalar. Bu jarayonlar mutaxassislar tayyorlash, ular shaxsini shakllantirishning axloqiy, g'oyaviy tomonlariga, umuman, ular tarbiyasiga bo'lgan yondashishning maqsad va vazifalarini mustaqillik g'oyasi asosida mutlaqo yangicha tashkil etishni taqozo qiladi.

Bunda tarbiyaning asosiy vazifasi bo'lajak mutaxassislarni mustahkam e'tiqod, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishdir. I.Karimov: «Mana shunday bir vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan hayotiy-milliy qadriyatlariga, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodasiga ega bo'lmasa, har turli mafkuralarning bosimiga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishidagi tazyiqlariga bardosh berishi amrimahol. Buni kundalik hayotda uchrab turadigan ko'plab voqealar misolida ham kuzatish mumkin», - deb juda o'rinli ta'kidlaydi [3, 33]. Yuqorida ta'kidlanganidek, inson harakati, intilishlari, qiziqishi, ehtiyojlari, xulq-atvori, axloqini doimiy nazorat qiluvchi eng kuchli vosita uning g'oyaviyligi asosida shakllangan kishining ishonchi, e'tiqodi, dunyoqarashidir. Bular asosida har bir yoshda hayot mazmuni va maqsadi, kelajak orzu umidlari, o'zi va boshqalar, jamiyat haqidagi tasavvurlari, «Kimman», «Kim bo'laman» va «Unga qanday erishaman» kabi his-tuyg'ular shakllanadi. Bular o'z navbatida yoshlarning hayot ideallarida o'z ifodasini topadi.

Ideal shaxsning mohiyati, tuzilishi va faoliyatining tarkibiy qismlari: harakat, ehtiyoj, qiziqish, motivida hamda yo'nalganligi zaminida shakllanadi. Shuni ta'kidlashimiz lozimki, ideal insonning butun hatti-harakati, xulq-atvorining ijtimoiy mohiyatini belgilab, kelajakka yo'nalgan bo'lib, uning yurish-turishini, axloqiy jihatdan doimo nazorat qiladi.

Mustaqil jamiyatimizning oliy maqsadi – insonning o'zini har tomonlama aqliy, axloqiy, estetik, ruhiy va jismoniy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashdir. Zero, shaxs barkamolligisiz jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy mafkuraviy rivojlanishini tasavvur qilib ham bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu borada I.Karimov ta'kidlab o'tganidek: «...tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda» [4, 51]. Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, insonning o'zini takomillashtirmasdan turib jamiyat oldida turgan murakkab muammolarni hal qilish mumkin emas. Chunki ularni echishda inson ongi, aql-zakovati, ijtimoiy faolligi, xalq, millat oldidagi ma'suliyatni his qilishi muhimdir. Inson va uning ongini o'zgartirish bilan mustaqil jamiyatni qurish bir-biriga bog'liq dialektik jarayon ekanligini birinchi Prezidentimiz I.Karimov quyidagicha asoslab berdi: «...Ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin, ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni

tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. Ko'rib turganimizdek bularning barchasi bir-biri bilan zanjir kabi chambarchas bog'liq masalalardir» [3, 40]. Bu murakkab vazifani echish ta'lim-tarbiya va oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashni taqozo qiladi. Yoshlarda Vatan, xalq oldidagi mas'uliyatni his qilish tuyg'usini tarbiyalash, ularni hozir uchun emas, balki kelajakni ko'zlab tarbiyalashni talab qiladi: «...Maqsadlarimizga erishish, yangi demokratik jamiyatni qurish islohotlarning taqdiri qanday intellektual kuchlarga egaligimizga yoshlarimiz qanday madaniy va professional saviyaga erishganligiga, qanday ideallarga e'tiqod qilishga, ma'naviy jihatdan qanchalik boyishiga bog'liqdir», – deb ta'kidlaydi I.Karimov [5, 31].

Insonning rivojlanishi – jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy tomondan takomillashuvi bo'lib, bular uning tug'ma va yashash sharoiti ta'sirida hosil bo'ladigan xususiyatlarning sifat va miqdor jihatdan o'zgarishidir. Bunda tarbiyaning belgilovchi roli shundaki, u kishiga ta'sir etuvchi omillarni jamiyat talablariga muvofiqlashtiradi. Jamiyatning yoshlar oldiga qo'yayotgan masalalarni ijtimoiy mohiyatini tushunib olishlariga yordam beradi.

Shuning uchun ham I.Karimov: «Bilimdon professional jihatdan savodli hamda g'ayrat-shijoatli shaxslarni, o'z mamlakatining chinakam vatanparvarlarini tarbiyalay oladigan, ularni buyuk milliy madaniyatning ulkan ma'naviy me'rosi bilan boyita oladigan, jahon fani va madaniyati durdonalaridan bahramand eta oladigan mamlakat hamda millatgina buyuk kelajakka erishishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik lozim», – deb ta'kidlaydi [6, 362]. Bu esa umumiy o'rta ta'lim maktablar oldiga bo'lajak mutaxassislarni ijobiy shaxsiy fazilatlarini shakllantirishni ular kasbini chuqur biladigan qilib tarbiyalash vazifasini qo'yadi. Shuning uchun, bu vazifani to'laqonli hal etish davlat dasturiga kiritilgan. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da qayd qilinganidek: «Xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirish ustuvorligi ta'minlanadi», – deyilgan [4, 54]. Demak, bugungi kunda ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlarni yanada faollashtirish davr talabidir. Tarbiya eng avvalo kishilarning bir-biriga o'zaro ta'siri orqali ijtimoiy xulq normalarini egallash jarayonidir. «Insoniy munosabat – bu sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi o'zaro harakat bo'lib, u yo'nalganlik tabiatiga ega bo'ladi. Munosabat faqat insonga xosdir va u faqat jamiyat bag'rida amal qiladi. Shu ma'noda voqelikni estetik munosabatda bo'lish sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasidagi o'zaro harakatning maxsus turidir. Estetik munosabat xususiyatlarini ochish, idrok qilish bu uning ob'ekt va o'zaro harakatlari tabiatini ochish, idrok qilish demakdir» [7, 79]. Mustaqillik sharoitida kishilarning o'zaro munosabatlari butunlay yangi mazmun kasb etib, axloqiy va insonparvar xarakter kasb etadi. Bunday sharoitda tarbiya butun jamiyatning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoladi. Modomiki, yoshlar tarbiyasi shunchalik muhim ekan, tarbiya orqali ularga yuksak insoniy fazilatlar singdirilar ekan, ularga ta'sir etishning ichki va tashqi mexanizmlarini tarbiyachi yaxshi bilishi zarur. Buning uchun eng avvalo ta'sir etuvchi tarbiya ob'ektini, ya'ni talaba-o'quvchi shaxsining pedagogik va psixologik xususiyatlarini bilishi zarurdir [8; 12].

Inson dunyoga biologik zot sifatida keladi. Lekin, biologik zot ekanligi uning mohiyatini to'la ifoda etmaydi. Uning mohiyati ijtimoiy mavjudot ekanligida, ijtimoiy omil insonni shaxs bo'lib shakllanishi uchun muhim hisoblanadi. Inson murakkab sub'ektiv tizim sifatida ijtimoiy va biologik xususiyatlarning ta'siri ostida shakllanadi va rivojlanadi. Bu ikki xususiyat shaxs shakllanishida o'zaro

bog'liq bo'lib, ichki va tashqi omillariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Inson tarbiyasi tug'risida gapirganda ichki (biologik) va tashqi muhit tarbiya omillar bilan birga boshqariladigan va hamma vaqt ham boshqarish mumkin bo'lmagan ta'sirlarni ham hisobga olish kerak. Shu omillarni hisobga olib har bir umumiy o'rta ta'lim maktabda talabalarni tarbiyalash uchun o'ziga xos tizimi yaratilishi kerak. Unda maqsad, mazmun, prinsiplar, shakl va metodlar o'zaro bog'liqlikda talabaning shaxsiy sifatlarini kamol toptirish va tanlagan mutaxassisligini chuqur egallashiga zamin hozirlashi lozim. Bunday tarbiyaviy ishlar tizimi ma'lum talab va prinsiplar asosida tuzilishi kerak. Chunonchi, vorislik prinsipi – avvalgi an'analarga tayanish va davom ettirish, o'quvchilarni jipslashuviga, tashabbus ko'rsatishiga da'vat etadi [9; 10]. Tarbiyaviy ishlarda ma'lum ketma-ketlik, izchillik, muntazamlikka rioya qilish, ishlarni bir maromda, yaxlit mantiq, rejimda borishini ta'minlab, uzilishlar, tasodifiy tadbirlar oldini olib, talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib tarbiyaviy ishlarning mazmunan, shakl va metodlarini murakkablashib borishiga olib keladi. O'rta umumiy ta'lim maktabi o'quvchilari tarbiyasining uzluksiz tashkil qilish, olib boriladigan ishlarning vaqt jihatdan tekis borishi, zo'riqish va pasayishning o'zaro almashinuvini ta'minlab o'quv yili davomida bir maromda borishi asosida – stixiyalilik, kompaniyabozlik, yoki shturm tariqasida olib borishga chek qo'yadi [13; 17].

O'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiya ish tizimining mazmunini tarbiya tarkibiy qismlari– aqliy, vatanparvarlik va baynalminal, axloqiy, g'oyaviy, siyosiy, huquqiy, mehnat, jismoniy, estetik, diniy, ekologik, jinsiy, iqtisodiy bo'lib, talabalarning turli faoliyat turlari–yakka induvidual, guruhli, jamoaviy, ommaviy umumiy shakllarda guruh rahbarlaridan tortib o'quv yurti rahbarlari ishtirokini o'z ichiga oladi. Uning mazmuni turli shakl va metodlar orqali amalga oshiriladi [14; 15]. O'rta umumiy ta'lim maktabida tarbiyaviy ish murakkab tuzilishga ega. Uni bir qancha komponentlar: rejalashtirish, tashkil qilish va faoliyatining tahlili, guruh va bo'lim, o'quv yurti o'qituvchilarining pedagogik ishlari birligi va o'zaro bog'liqligi tarzida qarash kerak bo'ladi [22]. O'quv yurtidagi tarbiya tizimining muhim xususiyati talabalarni tarbiyalashning umumiy tarkibiy qismi sifatida ta'lim jarayoni bilan yaxlitlikda olib borilishidir. Uning hamma komponentlari yagona maqsad – yuksak axloqli, kasbini chuqur egallagan bo'lajak mutaxassislarni shakllantirishga xizmat qilishi zarur. Tarbiyaviy tizim komponentlarining o'zaro aloqadorlik va bir-biriga o'zaro ta'siri muqarrar zaruriyatdir. Bunda tizimning biror elementi bo'lmasa, yoki ishlamasa tizim soat mexanizmiday ishlay olmay, ishdan chiqadi. Shu bilan birga o'rta umumiy ta'lim maktabi o'quvchilarini tarbiyalash tizimi dinamik xarakterga ega bo'lib yildan-yilga vazifa, maqsad, mazmunning o'zgarib, murakkablashuvi asosida qurilishi kerak. Bunday tizim uchun yana bir muhim talab uni boshqarish va o'z-o'zini boshqarishga asoslanishidir. Inson faoliyatining eng murakkab sohalaridan biri bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktabda talabalar tarbiyaviy tizimini boshqarish uchun uni hamma tomonlarini aniq tasavvur qilish va chuqur bilish kerak [11;16].

Ammo, kuzatishlar va so'rovlar ko'rsatadiki, amalda tarbiyaviy ish olib borayotgan kishilarning hammasi ham bu haqda aniq tasavvurga ega emas. Ayrimlar tizim deganda ishlarning ketma-ketligini, boshqalar tadbirlarni davriy takrorlanishini, uchun, chi kishilar, faoliyatning har tomonlama yo'nalishini tushunadilar. Buning oqibatidagi turli-tumanlilik bir xilda tarbiyaviy jaryonni tashkil qilishda salbiy ta'sir qiladi. Bu, birinchidan o'quvchilar tarbiyaviy jarayoni haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lmaslik, ko'pchilik hollarda ilmiy-metodik adabiyotlarni o'qib, tegishli ma'lumot olish xohishining yo'qligi tufayli tarbiyachilar xususiy, bir-biriga bog'lanmagan, alohida qismlar, yo'nalishlar, elementlar

bilan ish ko'rib, butun tizim yaxlitligini tushunish darajasiga ko'tarilmaydilar. Ikkinchidan, har holda shu asosda tizim tashkil qilingan bo'lsada, u juda ko'p xato qilish, tuzatish usulida bo'lib, ko'p kuch va vaqtni sarflash orqali bo'lishi mumkin. Ammo, tarbiyaviy jarayonning ilmiy asoslarini bilish, tizimni yuqori unum bilan ishlashga, kam xato va zo'riqishlarsiz yuqori natijaga erishish garovi bo'la oladi [18; 21].

Kuzatishlar tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda uchraydigan tipik qator kamchiliklarni aniqlash imkonini berdi. Chunonchi, ko'p uchraydigan kamchilik tarbiyaviy mazmuni to'liq emasligidadir. Buning oqibatida tizimning dastlabki holatini aniq tasavvur qila olmay, tarbiyachilar shakl bilan mazmuni bir-biridan farq qila olmay, rejalashtirishni esa shakllarni vaqt, joy jihatdan bajaruvchilarni taqsimlash bilan almashtiradilar. Buning oqibatida tizimdan qaysidir komponent tushib qoladi. Shuning uchun ham tarbiyachi o'z ishining maqsadi va mazmunini aniq belgilashi lozim. Shakl mazmunga mos tanlanadi, shakl belgilovchi emas, balki ergashuvchidir. Maqsadni to'g'ri belgilay olmaslik o'quvchi shaxsini bir yoqlama shakllanishiga, etuk shaxs bo'lishiga salbiy ta'sir qiladi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda shaklga va ularning soniga e'tibor berish talabalarning unga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi, befarqligi sabab bo'ladi. Faqat shu asosda bo'lajak mutaxassislarni ma'naviy va axloqiy etuk, barkamol inson, shaxsiy-axloqiy sifatlari bilan kasbiy etukligini ta'minlash mumkin bo'ladi. Bu vazifani ilmiy-pedagogik asosda hal qilish esa tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari va prinsiplarini bilishni taqozo qiladi [19; 20].

O'rta umumiy ta'lim maktabi o'quvchilari tarbiyaviy ishlarini tashkil qilishdagi xarakterli kamchiliklardan yana biri uning g'oyaviy, siyosiy, axloqiy, yo'nalishini belgilay olmaslikdir. Ayrim tarbiyachilar tarbiyaviy jarayonda uning yo'nalishlari birligi va o'zaro bog'liqligini anglamay ma'naviy, axloqiy tarbiyani faqat haftalik guruh muloqotlari, suhbatlar hal qiladi, deb tushunadilar. O'quvchilar tarbiyaviy ishining samarador va ta'sirli bo'lishi uchun ko'p jihatdan g'oyaviylik, axloqiylik uning belgilovchi mezonini bo'lishiga bog'liqdir. O'rta umumiy ta'lim maktabi o'quvchilari tarbiyaviy ishida pedagogik rahbarlik, tashabbus, mustaqillik va o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini tarbiyalash bilan yaxlit tizim sifatida olib borilsa, ushbu ishlar yuqori samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTALAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga kuramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", - 2019 yil. – B. 488. 21-bet.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. YUNESKO ijroiya kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisida so'zlagan nutqi. 7-jild. – Toshkent: O'zbekiston, – 1999. 39-bet.
3. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. «Turkiston» gazetasining muxbiri savollariga javoblar. – Toshkent: O'zbekiston, –1999. – 31 b.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, – 1996. -5 b.

5. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – Toshkent: O'zbekiston. – 1994-yil. – 160 b. 13-bet.

6. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqbol iqtisod, siyosat, mafkura. /Asarlar 1-tom. – Toshkent: O'zbekiston, –1996-yil. 31-bet.

7. Jomiy A. Farzandinga. – Toshkent: – 1977. 79-bet.

8. Zaripova G.K. Dars jarayonida va undan tashqari tadbirlarda o'quvchi shaxsini shakllanishida hamda uning kasb egallashida o'rta umumiy ta'lim maktabidagi tarbiyaning yetakchi ahamiyati/ Vol. 42 No. 1 (2024): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 42 | Часть-1. 76-92.

[https://scholar.google.com/scholar_url?url=http://newjournal.org/index.php/01/article/view/12326&hl=ru&sa=X&cd=13592918638829847184&ei=mab_Zeb2LY-](https://scholar.google.com/scholar_url?url=http://newjournal.org/index.php/01/article/view/12326&hl=ru&sa=X&cd=13592918638829847184&ei=mab_Zeb2LY-Sy9YP6ICD0Ak&scisig=AFWwaeb2ncyTQaARMr4goepKrrff&oi=scholar&hist=1xFax7AAAAAJ:4401037987834098197:AFWwaebLEXpCNRB4TedFUL0syXIb&html=&pos=2&folt=cit&fols=)

[Sy9YP6ICD0Ak&scisig=AFWwaeb2ncyTQaARMr4goepKrrff&oi=scholar&hist=1xFax7AAAAAJ:4401037987834098197:AFWwaebLEXpCNRB4TedFUL0syXIb&html=&pos=2&folt=cit&fols=https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12326](https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12326)

9. Zaripova G.K. Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida o'qituvchilar umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalash tizimida o'z-o'zini tarbiyalashni shakllantirishining ahamiyati/Vol. 42 No. 1 (2024): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 42 | Часть-1. 50-57.

[https://scholar.google.com/scholar_url?url=http://newjournal.org/index.php/01/article/view/12324&hl=ru&sa=X&cd=11741118385377896405&ei=mab_Zeb2LY-](https://scholar.google.com/scholar_url?url=http://newjournal.org/index.php/01/article/view/12324&hl=ru&sa=X&cd=11741118385377896405&ei=mab_Zeb2LY-Sy9YP6ICD0Ak&scisig=AFWwaeYAgP8PeiLgFmNT9BSWSZy3&oi=scholar&hist=1xFax7AAAAAJ:4401037987834098197:AFWwaebLEXpCNRB4TedFUL0syXIb&html=&pos=3&folt=cit&fols=)

[Sy9YP6ICD0Ak&scisig=AFWwaeYAgP8PeiLgFmNT9BSWSZy3&oi=scholar&hist=1xFax7AAAAAJ:4401037987834098197:AFWwaebLEXpCNRB4TedFUL0syXIb&html=&pos=3&folt=cit&fols=https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12324](https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12324)

10. Зарипова Г.К. Духовно-педагогическая роль самообразования в формировании учащихся общих средних школ как совершенных человек./Vol. 42 No. 1 (2024): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 42 | Часть-1. 58-75.

[https://scholar.google.com/scholar_url?url=http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12325&hl=ru&sa=X&cd=9735756815312938566&ei=mab_Zeb2LY-](https://scholar.google.com/scholar_url?url=http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12325&hl=ru&sa=X&cd=9735756815312938566&ei=mab_Zeb2LY-Sy9YP6ICD0Ak&scisig=AFWwaeY6jJD0R6zSifDr7G-lp5BC&oi=scholar&hist=1xFax7AAAAAJ:4401037987834098197:AFWwaebLEXpCNRB4TedFUL0syXIb&html=&pos=4&folt=cit&fols=)

[Sy9YP6ICD0Ak&scisig=AFWwaeY6jJD0R6zSifDr7G-lp5BC&oi=scholar&hist=1xFax7AAAAAJ:4401037987834098197:AFWwaebLEXpCNRB4TedFUL0syXIb&html=&pos=4&folt=cit&fols=https://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/12315](https://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/12315)

11. Zaripova G.K. The leading importance of education in a secondary school in the formation of the student's personality during the lesson process and in events outside him and in his profession./Journal of new century innovations. Vol. 49 No. 1 (2024), Volume-49. Issue-1, 148-163.

[https://scholar.google.com/scholar_url?url=http://newjournal.org/index.php/new/article/download/12317/11940&hl=ru&sa=X&cd=11771490114323368116&ei=mab_Zeb2LY-](https://scholar.google.com/scholar_url?url=http://newjournal.org/index.php/new/article/download/12317/11940&hl=ru&sa=X&cd=11771490114323368116&ei=mab_Zeb2LY-Sy9YP6ICD0Ak&scisig=AFWwaeaQXWfIvnwCGSnZsvFNQYc8&oi=scholar&hist=1xFax7AAAAAJ:4401037987834098197:AFWwaebLEXpCNRB4TedFUL0syXIb&html=&pos=1&folt=cit&fols=)

[Sy9YP6ICD0Ak&scisig=AFWwaeaQXWfIvnwCGSnZsvFNQYc8&oi=scholar&hist=1xFax7AAAAAJ:4401037987834098197:AFWwaebLEXpCNRB4TedFUL0syXIb&html=&pos=1&folt=cit&fols=https://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/12316](https://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/12316)

12. Zaripova G.K. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarini komil shaxs sifatida shakllantirishda o'zi-o'zini tarbiyalashning ma'naviy-pedagogik o'rni/ "PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA" xalqaro ilmiy-

metodik jurnal «ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ» международный научно-методический журнал «PEDAGOGICAL ACMEOLOGY» international scientific-methodical journal. №1(3) 2024. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFax7AAAAAJ:nrtMV_XWKgEC

13. Zaripova G.K. Spiritual and pedagogical role of self-education in the formation of general secondary schools students as perfect persons/ Journal of new century innovations. Vol. 49 No. 1 (2024), Volume-49. Issue-1, 133-142. <https://www.newjournal.org/http://www.newjournal.org/index.php/new/issue/view/337>; https://scholar.google.com/scholar_url?url=http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/12315&hl=ru&sa=X&cd=13700377225825864947&ei=mab_Zeb2LY-Sy9YP6ICD0Ak&scisig=AFWwaeY81IU2g4d6b6IRJnlJCsQd&oi=scholar&hist=1xFax7AAAAAJ:4401037987834098197:AFWwaeBLEXpCnrB4TedFUl0syXIb&html=&pos=0&folt=cit&fols=

14. Zaripova G.K. Ведущее значение образования в средней общеобразовательной школе в формировании личности учащегося в процессе урока и в событиях вне него и в его профессии/ Journal of new century innovations. Vol. 49 No. 1 (2024), Volume-49. Issue-1, 161-184.

https://scholar.google.com/scholar_url?url=http://newjournal.org/index.php/new/article/download/12317/11940&hl=ru&sa=X&cd=11771490114323368116&ei=mab_Zeb2LY-Sy9YP6ICD0Ak&scisig=AFWwaeaQXWfIvnrwCGSnZsvFNQYc8&oi=scholar&hist=1xFax7AAAAAJ:4401037987834098197:AFWwaeBLEXpCnrB4TedFUl0syXIb&html=&pos=1&folt=cit&fols=
<https://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/12316>

15. Zaripova G.K. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish – ular tarbiyasi samaradorligini oshirishning muhim faktoridir/ "TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR" "ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ" "EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH." ISSN 2181-1709 (P); ISSN 2181-1717 (E); SJIF: 3.805 (2021). 2024/1. 288-296. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFax7AAAAAJ:YohjEiUPhakC

16. Zaripova G.K. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida sinf rahbarining shaxsiy va kasbiy namunasi./ "PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA" xalqaro ilmiy-metodik jurnal «ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ» международный научно-методический журнал «PEDAGOGICAL ACMEOLOGY» international scientific-methodical journal. №5(7) 2023. 120-129-betlar.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFax7AAAAAJ:9Nmd_mFXekcC

17. Zaripova G.K. The Importance of the Class Teacher in the Education of Schoolchildren as Perfect Personalities/ HOME / ARCHIVES / VOL. 2 NO. 12 (2023): AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT (AJSLD) / Articles. 101-110-betlar. DOI: <https://doi.org/10.51699/ajsl.v2i12.3192>.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFax7AAAAAJ:9Nmd_mFXekcC

18. Zaripova G.K. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalash tizimida o'z-o'zini tarbiyalashning o'rmi/ "TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR" "ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ" "EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH." ISSN 2181-1709 (P); ISSN 2181-1717 (E); SJIF: 3.805 (2021). 2023/11. 311-318-betlar.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFax7AAAAAJ:XD-gHx7UXLsC

19. Zaripova G.K. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchi shaxsini shakllanishida pedagogik yondashish va uning kasb egallashida yetakchi ahamiyati /- Buxoro: "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 9. 98-106- betlar.

https://buxdu.uz/media/jurnallar/pedagogik_mahorat_9_2023.pdf
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFax7AAAAAJ:axFR9aDTf0C

20. Зарипова Г.К. Педагогический подход в формировании личности учащегося в общей средней школе и его значение лидера в получении профессии./ VOLUME 2, SPECIAL ISSUE 10 SEPTEMBER 2023. ISSN: 2181-3515. 8-22-стр. https://t.me/Erus_uz Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 8–22. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3794>.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFax7AAAAAJ:j8SEvjWlNXcC

21. Zaripova G.K. Future specialists – spiritual and professional education of secondary school students – a need for the development of our independent country/ Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 97–105. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3872>. http://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFax7AAAAAJ:VLnqNzywnoUC

22. Zaripova G.K., Norova F.F., Subxonqulov T.U. Building the professional competence of globally competitive teachers in digital and information and communication technologies./ Journal of Survey in Fisheries Sciences. 10(3S) 2254-2264. 2023. 2254-2264- pages. <https://sifisheressciences.com/journal/index.php/journal/article/view/844/837>. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFax7AAAAAJ:-_dYPAW6P2MC

23. Зарипова Г.К. Посвящается к дню 140 летия Садриддина Айний. iScience. "Актуальные научные исследования в современном мире". Выпуск 12 (44) часть 4. декабрь 2018 год. 51-54-стр. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFax7AAAAAJ:UeHWp8X0CEIC

24. Zaripova G.K. Masofaviy ta'lim tizimida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari: "Fizika, matematika va informatika". – Toshkent. 2014 y. – №5. – B.114-118. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFax7AAAAAJ:SpbeaVW3-B0C

25. Зарипова Г.К. Нажмиддинова Гавҳар – моҳир педагог олима. Бухоро муҳандислик технология институтининг "Илм ва фан тараққиётида олима аёлларнинг тутган ўрни ва

роли” Республика илмий-амалий анжуман материаллари 20-21 ноябрь 2014 йил, I – китоб, – Б. 92-94.

26.Зарипова Г.К. Рухшунос олима Турсунова Муҳаббат Нуровна. Бухоро муҳандислик технология институтининг “Илм ва фан тараққиётида олима аёлларнинг тутган ўрни ва роли” Республика илмий-амалий анжуман материаллари 20-21 ноябрь 2014 йил, I – китоб, – Б. 90-92.

27.Зарипова Г.К. Манглайи ярқираган олима Ойниса Мусурмонова. Бухоро муҳандислик технология институтининг “Илм ва фан тараққиётида олима аёлларнинг тутган ўрни ва роли” Республика илмий-амалий анжуман материаллари 20-21 ноябрь 2014 йил, I – китоб, – Б. 89-90.

28.Zaripova G.K. Voyaga yetmagan yoshlarda Vatanga bo'lgan muhabbatni “BIZ BUYUK YURT farzandlarimiz” shiori ostida shakllantirishning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi o'rni: Министерство Здравоохранения Республики Узбекистан Бухарский государственный медицинский институт имени абу Али Ибн Сино. Научно-практической конференции с международным участием на тему: “Проблемы экологии и экологического образования” СБОРНИК ТЕЗИСОВ 11-12 ноября 2022 года. 32-33-стр.